

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING MALAYZIYAGA RASMIY TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning taklifiga binoan 4-fevral kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Kuala-Lumpur xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Malayziya parlamenti Vakillar palatasi spikeri Johari bin Abdul, ta’lim vaziri Zambri Abdulqodir va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O‘zbekiston yetakchisining tashrifi sharafiga faxriy qorovul saf tortdi, ikki mamlakat davlat bayroqlari ko’tarildi.

Prezidentimiz aeroportda Malayziya parlamenti spikeri bilan uchrashuv o’tkazdi. Bo’lajak oliy darajadagi uchrashuvlar kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlar doirasida faol hamkorlik va almashinuvlarni davom ettirish, o’zaro tashriflar va do’slik guruhlarini tadbirlarini tashkil etish, qonun ijodkorligi masalalarida amaliy hamkorlikni yo’lga qo’yish, muhim investitsiyaviy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar dasturlarni amalga oshirishga ko’maklashish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tashrif dasturining asosiy tadbirlari 5-fevral kuni bo’lib o’tadi.

O‘zbekiston Prezidenti va Malayziya Bosh vaziri oliy darajada muzokaralar o’tkazadi hamda O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumida ishtirok etadi. Sammit yakunida qator hujjatlararo va idoralararo hujjatlar imzolinishi ko’zda tutilgan.

O‘ZA

Elchi Karomiddin GADOYEV: “O‘ZBEKISTON VA MALAYZIYA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI O‘Rnatish YO‘LIDA DADIL ODIMLAMOQDA”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-fevral kuni rasmiy tashrif bilan Malayziyaga bordi. O‘zbekiston elchisi Karomiddin Gadoyev oliy darajadagi O‘zbekiston — Malayziya sammiti arafasida “Dunyo” axborot agentligi uchun bergan intervyusida Malayziya bilan ikki va ko’p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorlikning bugungi holati haqida to’xtaldi hamda ikki tomonlama munosabatlarning ustuvor yo’nalishlari va istiqbollari haqida batafsil so’zlab berdi.

— O‘zbekiston va Malayziyani azaldan tarixiy, an’anaviy do’slik rishtalari, din mushtarakligi, urf-odat va madaniy qadriyatlarining o’xshashligi kabi umumiy jihatlarni bog’lab turadi. Biroq bu umumiylik so’nggi yillarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo’ldi va ikki davlat o’rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning lokomotiviga aylandi.

Malayziyada XIX-XX asrlarda Hindistondan kelgan emigrantlar tufayli bu go’zal mamlakatda o’z o’mini topgan o’zbek madaniyati va turmushining bir qancha elementlarini uchratish mumkin. Ma’lumki, Hindiston yarim orolining katta qismida buyuk sarkarda va davlat arbobi Zahridin Muhammad Bobur tomonidan Boburiylar davlatiga asos solingan. Bobur Amir Temur avlodi bo’lib, u O‘zbekistonning Andijon shahrida tug’ilgan.

O‘zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo’lib, mintaqadagi barcha davlatlar bilan umumiy chegaralarga ega.

O’z navbatida, Malayziya geografik jihatdan Malay yarim orolida joylashgan. Ushbu mamlakat orqali Hind okeanini Tinch okeani bilan bog’laydigan strategik muhim Malakka transport yo’lagi o’tadi. Ushbu koridor dunyodagi eng ko’p aholi yashaydigan mamlakatlar — Hindiston (1,45 milliard kishi, 1-o’rin), Xitoy (1,42 milliard kishi, 2-o’rin) va jadal rivojlanayotgan ASEAN mintaqasi (680 million kishi) o’rtasidagi transport aloqalari uchun muhim arteriya hisoblanadi.

Bundan tashqari, Malayziya “haqiqatan Osiyo” (“truly Asia”) bo’lib, mahalliy aholi ta’kidlaganidek, Janubi-Sharqiy Osiyoda markaziy jug’rofiy o’rinni egallaydi. Bu borada O‘zbekiston va Malayziya ikki strategik muhim mintaga — Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o’rtasida yaqin munosabatlar o’rnatish uchun o’ziga xos ko’priklar bo’ladi.

Davomi 2-betda

Uyg‘oq fikr

IJTIMOIY QUUVVAT SIRI NIMADA?

O’n to’rt yashar o’g’lim bilan fanatizm va vatanparvarlik haqida gaplashishga to’g’ri keldi. U fanat bo’lishni tanladi. Bundan jahlim chiqdi. Ammo tishni tishga bosdim. Bir tomondan, bundan o’z vaqtida xabardor bo’lganimdan taskin topdim. Bu haqda keyinroq batafsil to’xtalamiz...



aholi orasida sog’lom turmush tarzini targ’ib etmasa ham har bir fuqaro o’zi uchun bu ishlarni bajaraversa bo’lmaydimi? Nazarimda, sportni davlat dasturi darajasida ommalashtirishning ikkita muhim sababi bor.

Davomi 3-betda



QASHQADARYODA YANGI GIDROENERGETIKA INSHOOTI ISHGA TUSHIRILDI

Mamlakatimizda ekologik toza, arzon va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko’paytirish hamda mavjud quvvatlarni oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida hududlarda sohani rivojlantirish borasida sezilarli ishlar bajarilmoqda. Barcha imkoniyatlar ishga solinib, aholining energiyaga talabini qanoatlantirish uchun yangidan yangi loyihalar ishga tushirilmoqda.

Taraqqiyot odimlari



Joriy yil 28-yanvarda elektr energetikasini 2025-2035-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari bo’yicha o’tkazilgan yig’ilishda mamlakatimizda so’nggi sakkiz yilda elektr ishlab chiqarish hajmi 38 foiz oshib, 81,5 milliard kilovatt-

soatga yetgani, xususiy sektorga keng yo’l ochilgani tufayli 11,2 gigavattli qo’shimcha quvvat yaratilgani, natijada bu sektorning generatsiyadagi ulushi 24 foizga, “yashil” energiya hisssasi esa 16 foizga yetgani qayd etildi.



“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati mahalliyalashtirish doirasida keng ko’lamli amaliy ishlarni davom ettirmoqda. Jumladan, reja asosida hududlarda kichik va mikro GESlar barpo etilib, foydalanishga topshirilmoqda. Xususan, kuni kecha Shahrisabz tumanidagi Hisorak suv ombori yaqinida yangidan barpo etilgan, energetik quvvati 3,5 megavattga teng, yiliga o’rtacha 17,5 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi Hisorak kichik GES foydalanishga topshirildi.

Marosimda so’zga chiqqanlar gidro-energetika tarmog’i “yashil” energetikaning muhim manbai ekani, jamiyat tomonidan

amalga oshirilayotgan loyihalar ijrosi endi to’laonli mahalliyalashtirish doirasida bajarilayotgani, hududlarda qurilayotgan kichik va mikro GESlardan samarali foydalanilayotgani ta’kidlandi.

Mazkur GESning loyiha qiymati 1,5 million dollarga teng va u yiliga o’rtacha 5 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga zamin yaratadi. Shuningdek, GES tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi 7300 ta xonadonni yoritishga xizmat qiladi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DUAL TA’LIM: O‘ZINI OQLAYOTGAN TAJRIBA

Katta avlod vakillari bilan suhbatlashib qolsak, biz talabalik paytida ham o’qib, ham ishlaganmiz, deyishadi. Darhaqiqat, insoniyat tarixida oliy ta’limning turli shakllari o’ylab topilgan. Buning asosiy maqsadi — har kim sharoitidan kelib chiqib oliy ma’lumot egallasin. Kunduzgi ta’lim, sirtqi ta’lim, kechki ta’lim, masofaviy ta’lim — sanasak, ularning qatori ancha keng.

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, sirtqi ta’limning dastlabki shakli 1830-yillarda London universitetida joriy qilingan. Bu ta’lim olish huquqini kengroq qatlamlar uchun ochiq qilishga qaratilgan dastlabki qadamlardan biri edi. Kechki ta’lim shakli esa sanoat inqilobi

davrida, ya’ni XIX asrda Yevropada paydo bo’lgan. Bu davrda ishlab chiqarishdagi ishchilarning malakasini oshirish zarurati yuzaga chiqqan. Ya’ni kunduzgi ta’lim shaklidan boshqa barcha ta’lim shakllari ehtiyoj natijasida paydo bo’lgan.

Yangicha yondashuvlar

Mamlakatimizda ham muayyan vaqt ta’limning kunduzgi ta’limdan boshqa shakllari tugatilgan. Natijada oliy ta’lim olish jarayoni murakkablasha borgan.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan oliy ta’lim tizimida mazkur ta’lim shakllari qayta tiklandi. Bu minglab yurtdoshlarimiz uchun ham sohaviy mehnat, ham oliy ta’lim bilan mashg’ul

bo’lish imkoniyatini yaratdi. Biroq shunday sohalar borki, ularda faoliyat ko’rsatish uchun faqatgina nazariy bilimlarga ega bo’lishning o’zi kamlik qiladi. Bu, asosan, sanoatdagi kasb-hunarlar bilan bog’liq sohalardir. Aynan shu kabi yo’nalishlar uchun jahon ta’lim tizimida dual ta’lim tushunchasi mavjud.

Dual ta’lim tizimi ilk bor Germaniya-da paydo bo’lgan va industrial rivojlanish jarayonida ancha shakllangan. Ushbu ta’lim modelida o’quvchilar ta’lim muassasasida nazariy bilimlar olish bilan birga ishlab chiqarish korxonalarida amaliy ko’nikmalarni egallaydi. Tizim, xususan, Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o’rin tutdi.

Davomi 5-betda



Elchi Karomiddin GADOYEV:

“O‘ZBEKISTON VA MALAYZIYA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI O‘Rnatish yo‘lida dadil odimlamoqda”

Boshlanishi 1-betda

Malayziya 1992-yil 1-yanvarda O‘zbekiston mustaqilligini Janubi-Sharqiy Osiyoda birinchi bo‘lib tan olgan. Joriy yil 21-fevral kuni rasmiy Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 33 yil to‘ladi.

Malayziya va O‘zbekistonga oliy darajadagi rasmiy tashriflar almashinuvi chog‘ida do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlik rivojiga poydevor qo‘yildi. Shuningdek, tashriflar davomida istiqbolli yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator hukumatlararo hujjatlar imzolandi.

So‘nggi yillarda mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar sezilarli darajada mustahkamlandi. Ikki tomonlama hamkorlikda samarali natijalarga erishildi, oliy va yuqori darajadagi siyosiy muloqot faollashdi. Tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlamog‘da, o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar ham tobora mustahkamlanayotir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida Malayziya sobiq Podshohi Sulton Abdulloh Riyosatiddin Al-Mustafo Billoh Shoh bilan o‘tkazgan uchrashuvi 15 yillik tanaffusdan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi muloqotni oliy darajada qayta tikladi.

2024-yil O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikning sezilarli faollashgani bilan yodda qoldi. Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning 2024-yil 17-19-may kunlari O‘zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli sheriklikning yangi bosqichini boshlab berdi. Uning O‘zbekiston Prezidenti bilan muzokaralari va ikki davlat yetakchilari tomonidan imzolangan Ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot yaqin kelajak uchun hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish imkoniyatini taqdim etdi.

2023-2024-yillarda yuqori darajadagi tashriflar almashinuvi ham sezilarli tarzda faollashdi. Xususan, Malayziya parlamenti Vakillar palatasi spikeri Johari bin Abdul 2023-yilda O‘zbekistonga tashrif bilan keldi. Malayziya Senati raisi o‘rinbosari Nur Jazlan Muhammad ham O‘zbekistonga ikki bor tashrif buyurdi.

2024-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Malayziyaga tashrif buyurdi. Ikki davlat parlamentlari o‘rtasida tuzilgan do‘stlik guruhlar faoliyati ham faollashmoqda.

Malayziya tashqi ishlar vaziri 2023-yil iyul oyida tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.



Shu bilan birga, 2024-yilning fevral va iyul oylarida O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri ikki marta tashrif bilan Malayziyaga bordi.

O‘zbekiston va Malayziya tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar hamkorlikning muhim mexanizmi hisoblanadi. Tashqi ishlar vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlarning beshinchi davrasi 2022-yil mart oyida Putrajaya shahrida tashqi ishlar vazirlari o‘rinbosarlari darajasida bo‘lib o‘tdi. Siyosiy maslahatlarning navbatdagi davrasini joriy yilda Toshkentda o‘tkazish rejalashtirilgan.

Malayziya O‘zbekistonning ASEAN davlatlari orasida muhim savdo sherigi bo‘lib qolmoqda. Ikki tomonlama tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari 2017-yildan buyon barqaror o‘sishni ko‘rsatayapti.

Malayziyaning O‘zbekistonga eksportining asosiy yo‘nalishlari yog‘-moy, mashina va transport ehtiyot qismlari, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari hisoblanadi.

O‘z navbatida, O‘zbekistondan Malayziyaga kimyo, to‘qimachilik va qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilinadi. Malayziyalik importyorlar orasida mamlakatimizda yetishtirilgan yangi sabzavot, poliz ekinlari va mevalarga (gilos, o‘rik, shaftoli, anor) qiziqish ortib bormoqda. Ular ta‘mi va narxi bo‘yicha Malayziya bozorida ancha raqobatbardosh.

Malayziyalik investorlarning O‘zbekistonga ishonchi ham ortib borayotir. Hozirgi kunda mamlakatimizda Malayziya kapitali ishtirokidagi 40 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda, ulardan 7 tasi 2024-yilda tashkil etilgan. Mazkur loyihalar o‘tgan yili Kuala-Lumpur (fevral), Samarqand (may) va Xiva (sentabr) shaharlarida o‘tkazilgan O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumlarining samarali natijalaridir.

Bundan tashqari, o‘tgan yil may oyida Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlar asosida O‘zbekiston — Malayziya hukumatlararo komissiyasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tomonlar joriy yilgi ikkinchi uchrashuvni tarixiy Xivada o‘tkazishga kelishib oldilar.

O‘zbekiston o‘zining strategik joylashuvi, rivojlangan transport infratuzilmasi va qo‘shni davlatlar bilan mavjud erkin savdo shartnomalari tayfali Malayziya biznesining 80 million aholiga ega Markaziy Osiyo bozoriga kirishi uchun muhim darvoza vazifasini o‘tashi mumkin. O‘z navbatida, Malayziya o‘zbek biznesining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bozorlarida ishtirokini kengaytirishda muhim ko‘priki bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o‘zbekistonlik mutaxassislar malayziyalik hamkorlar bilan birgalikda Markaziy Osiyo va Malayziya o‘rtasida muqobil logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish, ikki davlatda logistika markazlarini yaratish bo‘yicha ishlarni davom ettirmoqda.

Malayziyaning turizm sohasidagi tajribasi juda jozibali va foydali ekani hech kimga sir emas. Malayziya 2015-yildan buyon “Musulmonlar uchun do‘st mamlakat” (“Muslim friendly country”) reytingida birinchi o‘rinni egallab kelayotgani va har yili 30 millionga yaqin xorijiy sayyohni qabul qilayotgani e‘tiborga loyiqdir.

Malayziya ziyorat turizmi sohasidagi aloqalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham jozibador hisoblanadi. Malayziyaliklar Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa buyuk mutafakkirlarimiz merosiga hurmat bilan qaraydi.

Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz va Toshkent kabi qadimiy shaharlarimizning noyob tarixiy yodgorliklari bilan bir qatorda, yurtimizda boshqa ko‘plab ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, malayziyalik sayyohlar qiziqishini oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ikki davlat o‘rtasidagi transport aloqasi masalalari alohida e‘tiborga loyiqdir. Bugungi kunda “Uzbekistan Airways” milliy aviakompaniyasi va Malayziyaning “Batik Air Malaysia” aviatashuvchisi tomonidan Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida haftasiga beshta to‘g‘ridan to‘g‘ri havo qatnovlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning 2024-yil may oyida O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlarga muvofiq, Kuala-Lumpurni Samarqand va Buxoro bilan bog‘lovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri aviataqovnlarni ochish masalasi ko‘rib chiqilyapti.

Ta‘limdagi hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning yana bir muhim sohasi

bo‘lib qolmoqda. Ikki mamlakat ta‘lim va ilmiy muassasalari o‘rtasida samarali sheriklik munosabatlari o‘rnatilgan. Islom sivilizatsiyasi buyuk allomalarining intellektual merosiga bag‘ishlangan xalqaro seminarlarni o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylangan.

O‘zbekistonga oliy darajadagi tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlar doirasida 2024-yil oktabr oyida Malayziya Milliy universiteti qoshidagi Islom sivilizatsiyasi institutida islomshunos olimlar ishtirokida Imom Buxoriy merosini o‘rganish bo‘yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi.

O‘zbekiston Prezidentining Malayziyaga tashrifi arafasida Kuala-Lumpur shahrida ikki davlat tahlil markazlari forumi hamda “Madaniy meros — Malayziya va O‘zbekiston o‘rtasidagi ko‘priki” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Perak shtatida oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining birinchi forumi muvaffaqiyatli o‘tdi. Penang shtatida esa “O‘zbekiston — Ipak yo‘lining durdonasi” sayyohlik ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga tashrifi va oliy darajadagi muloqot mamlakatlarimiz o‘rtasidagi iliq va do‘stona munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga va foydalanilmagan yuqori salohiyatga ega ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida qator hukumatlararo hujjatlar, shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi bitimlar imzolashni kutilmoqda. Kuala-Lumpur ikki mamlakat ishbilarmon doiralarning biznes-forumi uchun muhim maydonga aylanadi. Unda birgalikda amalga oshirish uchun bir qator istiqbolli loyihalarni muhokama qilish va kelishuvlarga erishish rejalashtirilgan.

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar, davom etayotgan qarama-qarshiliklar, diniy murosasizlik va islomofobiya holatlari fonida O‘zbekiston va Malayziya barcha nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarni global miqyosda keng targ‘ib etishni qat‘iy va izchil targ‘ib qilmoqda.

Muxtasar aytganda, 4-fevral kuni boshlangan O‘zbekiston Prezidentining Malayziyaga rasmiy tashrifi siyosat, xavfsizlik, savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, transport aloqalari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta‘lim, innovatsiya, madaniyat va xalq diplomatiyasi sohalarida ko‘p asrlik do‘stlik, o‘zaro ishonch va anglashuv poydevoriga asoslangan ikki tomonlama hamkorlikda yangi sahifa ochadi.

“Dunyo” AA
Kuala-Lumpur



Nuqtayi nazar

IKKI TOMONLAMA MUSHTARAK MAQSADLAR

Ravshan G‘OZIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Davlatlar o‘rtasida o‘rnatilgan iliq munosabatlarda ularning geografik jihatdan olis yoki yaqinligi muhim rol o‘ynamaydi. Buni O‘zbekiston va Malayziya hamkorligida ko‘rish mumkin. Zero, masofa nuqtayi nazaridan bir-biridan olisligiga qaramay, ikki davlat hamkorligi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, har sohada yaqin aloqalar o‘rnatilmoqda.

Bugungi kunda davlatlarimiz o‘rtasida siyosiy, savdo, investitsiya, madaniy, texnologik va boshqa ko‘plab sohalaridagi hamkorlik yanada mustahkamlanib boryapti. Bundan har ikki tomon ham birdek manfaatdor, albatta. Binobarin, ko‘p malayziyaliklar yurtimizning qadimiy shaharlari — Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrif buyurishni istaydi, o‘z navbatida, yurtdoshlarimiz ham Malayziyaning dengiz sohillarida hordiq chiqarishni xohlaydi. Bu esa Malayziya bilan turizm sohasida hamkorlik istiqbolli ekanini anglatadi.

Malayziya mikroelektronika va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish bo‘yicha katta tajribaga ega. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik davlatlarimiz uchun manfaatli bo‘lishi shubhasiz. Umuman, mamlakatlarimiz o‘rtasida ta‘lim, tibbiyot kabi sohalaridan tortib, turizm, sanoat, bank-moliya, madaniy-gumanitar yo‘nalishlarida hamkorlik ham iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti malay tilini o‘qitish bo‘yicha asosiy ta‘lim dargohi hisoblanadi. 2024-yilda universitetimiz talabalari xalqaro malay tili notiqlik san‘ati tanlovida 47 davlat vakillari orasidan yaxshi natija qayd etib, final bosqichiga yo‘llanma oldi.

O‘zbekiston hozir Malayziyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik savdo hamkori hisoblanadi. Davlatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yilda 102,4 million dollarga yetgan. 2016-yildagiga nisbatan savdo hajmi ikki barobar o‘sgan bo‘lsa-da, hali foydalanilmay turgan imkoniyatlar ko‘p. Agar mavjud salohiyatdan samarali foydalanilsa, ushbu ko‘rsatkichni tez fursatlarda 500-600 million dollarga chiqarish imkoni mavjud.

Ayni paytda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, tashrif davomida ikki davlat o‘rtasida imzolananigan yangi bitimlar, hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan muzokaralar davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, texnologik kooperatsiya, “yashil” energetika, turizm kabi yo‘nalishlar rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston va Malayziya madaniy yaqinlik, do‘stlik va birodarlik risthalariga ega, tez sur‘atlarda rivojlanayotgan mamlakatlardir. Davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor va asosiy, uni amalga oshirish borasida

Malayziya mikroelektronika va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish bo‘yicha katta tajribaga ega. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik davlatlarimiz uchun manfaatli bo‘lishi shubhasiz. Umuman, mamlakatlarimiz o‘rtasida ta‘lim, tibbiyot kabi sohalaridan tortib, turizm, sanoat, bank-moliya, madaniy-gumanitar yo‘nalishlarida hamkorlik ham iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 25-26-may kunlari Kuala-Lumpur shahrida bo‘lib o‘tgan “Malayziya she‘riyati dunyo sahnasida — 2024” shiori ostidagi “Qit‘alarni birlashtirgan dunyo ovozi” xalqaro tanlovida ishtirok etib, faxrli ikkinchi va to‘rtinchi o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

maqsadlarimiz mushtarak. Bu juda muhim jihat. Zero, O‘zbekiston — Malayziya hamkorligi nafaqat ikki davlat, balki Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi munosabatlar rivoji yangi bosqichga chiqishini ta‘minlaydi.

BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIKNI TA‘MINLAYDIGAN HUJJAT O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGINI TA‘MINLASH VA DINIY SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI KONSEPSIYASI LOYIHASI JAMOATCHILIK MUHOKAMASIDA

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi va uni tasdiqlash to‘g‘risidagi qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida jamoatchilik muhokamasi uchun e‘lon qilindi. Muhokamalarda yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan ishtirok etib, taklif va fikr-mulohazalarini bildirmoqda. Xususan, konsepsiya loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilganidan buyon 200 dan ortiq izoh, taklif va tavsiya kelib tushdi.

Diniy e‘tiqod va diniy bag‘rikenglik O‘zbekiston xalqini birlashtirish va jipslashtirishga xizmat qiluvchi, oilalarda o‘zaro hurmat-izzat va mehr-oqibatni mustahkamlovchi ezgu qadriyatdir. Shu bois, yurtimizdagi islohotlar jarayonida diniy qadriyatlarimizni tiklash, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash, muqaddas qadamlarni obod qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi loyihasi mazmun-mohiyatiga bag‘ishlab o‘tkazilgan matbuot anjumanida bu haqda alohida ta‘kidlandi.

Konsepsiya loyihasida diniy qadriyatlarimiz jamiyatimiz uchun juda muhim ekani alohida qayd etilgan. Zero, ular O‘zbekiston xalqi madaniyati, turmush tarzi,

urf-odatlari, odob-axloqi shakllanishi hamda avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tishiga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu hujjatda mamlakatimizda bu boradagi keng ko‘lamli islohotlar va yangilangan Konstitutsiyamiz talablaridan kelib chiqib, qator tushunchalarga aniq ta‘riflar berilmoqda. Ya‘ni vijdon erkinligi huquqini yanada kafolatlash, diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplari, ustuvor yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari ochib berilyapti.

Konsepsiyada diniy sohadagi huquqlarni cheklovchi biror yangi qoida kiritilmayapti, aksincha, huquqlar aniq bayon etilib, davlatning bu boradagi mas‘uliyati va majburiyati belgilanmoqda. Hujjatda belgilangan asosiy vazifalarning bajarilishi ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish maqsadida Oliy Majlis palatalarining

qarori bilan Parlament komissiyasi tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.

Konsepsiya loyihasini ishlab chiqishda vijdon erkinligi borasidagi xalqaro standartlar, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining hujjatlari to‘liq o‘rganilgan va loyihani tayyorlashda inobatga olingan.

Konsepsiya din sohasidagi siyosatning mazmuni, maqsadi, yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilab beradi. Natijada jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlik muhiti mustahkam bo‘lishi ta‘minlanadi. Konsepsiyaning eng muhim maqsadi ham aynan shulardan iborat.

— Har bir insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari hamda erkinliklarini tenglik va adolatlilik asosida ro‘yobga chiqarish jamiyatimizning umumiy manfaatlari sirasiga kiradi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jumanazar Otajonov. — Shunday ekan, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilmasdan, qonunchilik va jamoat tartibini buzmasdan vijdon erkinligi konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishi, ya‘ni o‘zi xohlagan

Konsepsiya din sohasidagi siyosatning mazmuni, maqsadi, yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilab beradi. Natijada jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlik muhiti mustahkam bo‘lishi ta‘minlanadi. Konsepsiyaning eng muhim maqsadi ham aynan shulardan iborat.

dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmasligi umumjamiyat manfaatlari hamda vijdon erkinligi uyg‘unligini anglatadi. O‘zbekistonda mazkur uyg‘unlikni ta‘minlash jamiyatda qonun ustuvorligi, totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik muhiti mustahkamlanishiga, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning barvaqt oldi olinishiga va ularni profilaktika qilishga imkon yaratadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, konsepsiya loyihasida ko‘zda tutilgan tamoyillar diniy munosabatlardagi barchaning o‘z huquqlari, boshqalar bilan munosabatlari va, albatta, chegaralarini aniq belgilaydi. Buni davlat xizmatchilari ham, olimlar ham, nomutaxassislar va oddiy insonlar ham bir xil tushunib, bir xil qabul qilib, ushbu konsepsiya qoidalari bo‘yicha o‘z munosabatlarini

shakllantiradi. Qolaversa, dunyoviy davlat degani nima ekani, bu boradagi yangilish qarashlar va noto‘g‘ri talqinlarga chek qo‘yadi. Natijada jamiyatda barqarorlik yanada mustahkamlanadi, tinchlik-totuvlik va hamjihatlik kuchayadi. Bu narsalar esa hozir birorta qonunda mavjud emas. Shuning uchun barcha savol va shubhalarga nuqta qo‘yadigan hujjat konsepsiyadir.

O‘zbekistonda vijdon erkinligini ta‘minlash borasidagi huquqiy normalar Konstitutsiyamizda va milliy qonunchiligimizda mustahkamlangan, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shahnoza Xolmaxamatova. — Taklif etilayotgan konsepsiyaning qabul qilinishi fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik

bo‘yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, jamiyatda qonun ustuvorligi mustahkamlanadi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligi oshadi. O‘zaro totuvlik, ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik muhiti yaxshilanadi. Dunyoviylikni ta‘minlashga doir qonunchilik yanada takomillashtiriladi, mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlar bartaraf etilib, dunyoviy davlat prinsipini ro‘yobga chiqarishga to‘siq bo‘luvchi omillar minimallashtiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida davlat va konfessiyalar o‘rtasida diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta‘minlaydigan munosabatlar modelini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtiriladi. Diniy va dinshunoslik ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirishni nazarda tutadigan diniy sohada kadrlar tayyorlash tizimi mukammallashadi. Diniy sohadagi davlat siyosati axborot makonida tizimli ravishda yoritilishini ta‘minlash uchun davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi vakillarining hamkorlik mexanizmlari yaratiladi. Diniy masalalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot va ekspert-tahliliy loyihalarni amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Hujjat loyihasi muhokamasi 10-fevralga qadar davom etadi. Barcha yurtdoshlarimiz uni takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflari bilan faol ishtirok etayotgani ushbu hujjatni jamoatchilik fikri asosida maromiga yetkazish, xalqchil va hayotiy bo‘lishiga zamin yaratadi, albatta.

**Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

IJTIMOIIY QUVVAT SIRI NIMADA?



Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Birinchisi, jismonan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish. Agar sport targ‘iboti jadal yuritilmasa, o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, aksarimiz sport bilan shug‘ullanishga deyarli befarq qaraymiz yoki hafsala qilmaymiz. Bunga hayotiy misollar talaygina.

Masalan, hozir ortiqcha vazn masalasi ko‘pchilikni bezovta qiladi. Chunki aksariyatimiz sport bilan shug‘ullanmaymiz. To‘g‘ri ovqatlanish haqida esa o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Tibbiyotchilarning aytishicha, bunday holatda odam lanjlik, hafsalasizlik kayfiyatidan qutula olmaydi. Shu bois, mas‘ul idora va tashkilotlar zimmasiga mazkur vazifa yuklanmoqda. Maqsad — jamiyatda sog‘lom, komil shaxslar safini kengaytirish, aholi salomatligini ta‘minlash orqali dori-darmonga sarflanayotgan xarajatlarni jiddiy tashvish.

Qadim afsonalarda qahramonlar komil shaxs sifatida tasvirlangan. Ana shu komillikning asosiy sifatlaridan biri o‘laroq qahramon jismoniy jihatdan boshqalardan ustun ekanini ko‘rsatiladi. Buni “Alpomish”da ham, “Odissey” yoki “Mahobhorat”da ham ko‘rishimiz mumkin. Bu eposlarning qahramonlari ilm-ma‘rifat bilan birga jismoniy mashqlarni ham puxta o‘zlashtirgan. Ularning barchasi bolalik chog‘idayoq bunga o‘rgatilgan. Shuning o‘ziyoq katta davlatchilikka ega o‘lkalar doim jismoniy tarbiyaga jiddiy e‘tibor berganini ko‘rsatadi. Qahramonlarning cheksiz jismoniy quvvatga ega ekaniga urg‘u berish orqali oilasini, vatanini himoya qilishga qodir shaxsning qiyofasi yaratilgan.

Tarixga boqib, odamlar, makon va zamon turfa qiyofaga kirganini, ammo hayot qonunlari o‘zgarishsiz qolaverishini anglaysiz.



Ya‘ni barcha davrlarda yurt taraqqiyoti ham jismonan, ham ruhan komil shaxslarga bog‘liq ekanini ko‘rasiz. Bugun dunyo manzarasi, yakkahokimlik kayfiyatidagi kuchlarning asl yuzini zukko odamlar allaqachon fahmlab ulgurdi. Bunday vaqtda jamiyat birdamligi, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlar hal qiluvchi kushaga ega bo‘ladi.

Davlat dasturida yoshlar, umuman, aholini sportga keng jalb etish orqali mana shunday sog‘lom, yurt sha‘nini himoya qila oladigan avlodni kamol toptirish maqsad qilingan. Jismonan chiniqqan, sog‘lom tanamiz esa ma‘rifat, ilm-fan sari keng yo‘l ochadi. Axir bejiz donolarimiz “Sog‘lom tanda sog‘ aql”, deyishmagan.

Ikkinchi jihati, sport jamoa bo‘lishi, birdamlikni o‘rgatadi. Hatto sportning yakkakurash turlari ham! Buni ortiqcha ta‘riflash shart emas. Birgina 2024-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarini eslashning o‘zi kifoya. O‘shanda nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqamiz — Markaziy Osiyo xalqlari yakdill bo‘lib, sportchilarimiz yutug‘idan quvondik. Bir-birimizni qo‘llab-quvvatladik. Birdamlik, ahillikning hayotdagi aksini ko‘ra oldik.

Abduqodir Husanovning dunyodagi yetakchi futbol jamoalaridan biriga o‘tishi ham xuddi shunday kayfiyat berdi. Mazkur jumalarni yozayotganimda media olamimizda yana bir quvonchli yangilik paydo bo‘ldi. Xalqaro “Judo Awards 2024” tanlovda Diyora Keldiyorovning Parijdagi Olimpiadada yaponiyalik Uta Abeni yenggani “Yil voqe‘ligi” deb topilbdi. Uning ustozlari Marko Shpitka esa ayollar terma jamoalari o‘rtasida eng yaxshi murabbiy yutug‘ini qo‘lga kiritibdi.

Li Kuan Yu “Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga” kitobida bunday yozadi: “Agar Singapur erishgan muvaffaqiyatni bir so‘z bilan ta‘riflashim lozim bo‘lganda, bu so‘zni “ishonch” degan bo‘lardim”.

Parijda o‘tgan musobaqalar ham, Abduqodir Husanovning natijasi ham jamiyatimizda mana shunday ishonch kayfiyatini uyg‘otgani rost. Takror bo‘lsa-da aytamiz, o‘tgan yil yozida Parijda bo‘lib o‘tgan musobaqalar Markaziy Osiyo ruhi uyg‘onganini ko‘rsatdi. Abduqodirning “Manchester Siti” futbol klubiga o‘tishi esa buni yana bir bor tasdiqladi. Qardosh xalqlarimiz uni olqishladi, qozoq oqinlari sportchilarimizga atab qo‘shiq aytdi. Jamiyatimizda yoshlar kelajagi, o‘zgarishlarga ishonch yanada mustahkamlandi.

Buni ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlardan ham ko‘rishimiz mumkin. Birgina misol, yozuvchi, biolog olim Baxtiyor Abdug‘afur o‘z sahilasida bunday yozadi: “Abduqodir fenomeni” yo‘limizdagi alohida bosqich. Olimpiadalarda bir hodisa ketma-ket yaroq etgan edi. Bir muhim jihat bor shu yerda: “katta” bo‘lyamiz! Hali Abduqodirga o‘xshagan “fenomen”lar har sohada porlaydi, fanda, adabiyotda, iqtisodida... Ishonch, ko‘p narsaga qodirmiz. Yana ham “katta” bo‘lamiz!”.

Ana shu katta bo‘lish yo‘lidagi bitta bosqich mahallalarda, idora va tashkilotlar jamoalarida sportni rivojlantirishdir. Tasavvur qiling, har bir yosh oilasi, mahallasida sport bilan doimiy shug‘ullansa, ko‘chalar, tumanlar kesimida sport jamoalari shakllansa, qanday manzara paydo bo‘ladi? Avvalo, jismonan sog‘lom, so‘ng ruhiyati tetik — oilasi, mahalla va tumani, vatani sha‘ni uchun kurashadigan ahil jamiyat yanada mustahkamlanadi. Yuqorida sportni rivojlantirishning ikki sababi bor ekanini aytgan edik. Mana shu ikki jihatning umumiy qiyofasi vatanparvarlikdir!

Shu bois, ommaviy sport tad-birlari deganda, faqat jismoniy sog‘liq bilan cheklanib fikr bildirgim kelmaydi. Bu-ni ajdodlarimiz juda yaxshi fahmlagan. Katta sayillar, muhim sanalar bahonasida musobaqalar uyushtirgan. Bolalar chillak, oshiq, arqon



Milliy ruhiyatni shakllantirish, jamiyat birdamligi yuksak marra degani. Qaysidir o‘lkani egallash uchun, avvalo, u yerda ichki nizolarni kuchaytirish kerak, degan qarash bor. Mazkur maqsad esa ana shunday xatarga qarshi turishda qo‘l keladi. Keling, buni kengroq tahlil qilsak.

Volontyorlik ko‘ngillilar harakati degani. Mazkur vazifada jamiyatda ezigulik istovchilar, boshqalarga beg‘araz yordam beradigan, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokchilar safini kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan jamiyatda o‘zaro ishonch va hurmat ruhini yuksaltiradi.

Deylik, hech kimi yo‘q nuroniyga qo‘shni yoshlar qarashib tursa, uning holidan xabar olib, og‘irini yengil qilsa, o‘sha ko‘ngilli yigit-qizlarni mahallada hamma birdan hurmat qila boshlaydi. Yoki o‘tgan yili ijtimoiy tarmoqlarda

Davlat

“dasturida yoshlar, umuman, aholini sportga keng jalb etish orqali mana shunday sog‘lom, yurt sha‘nini himoya qila oladigan avlodni kamol toptirish maqsad qilingan. Jismonan chiniqqan, sog‘lom tanamiz esa ma‘rifat, ilm-fan sari keng yo‘l ochadi. Axir bejiz donolarimiz “Sog‘lom tanda sog‘ aql”, deyishmagan.

svetofor ishlamay turgan chorrahalarda yo‘lni tartibga solayotgan yoshlar haqida bir qancha lavhalar tarqaldi. O‘shanda ularni barcha birdek olqishladi. Mana shu kabi jihatlar sabab volontyorlik jamiyatda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu ham yuqorida sport misolida aytganimiz kabi vatanparvarlikni mustahkamlaydi.

Quvonarlisi, hozir yoshlar orasida volontyorlik sezilarli darajada kengaymoqda. Masalan, ko‘ngilli yoshlar “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida ko‘chatlar ekishda muntazam ishtirok etyapti. Sog‘lig‘ida muammosi bor keksalar va yoshlarga madad beradigan bir qancha volontyorlik guruhlari



Jadid ajdodimiz Abdulhamid Cho‘lpon “Millatni uyg‘otish — uyg‘onganlarning vazifasi”, degan edi. Buning uchun, avvalo, uyg‘onganlar ko‘ngilli bo‘lishni bilishi kerak. Ya‘ni uyg‘oq fikr bilan oq-qorani farqlashning o‘zi yetarli emas. Ayni paytda bilganlarimizni jamiyatda, yon-atrofimizdagilarga targ‘ib etishni o‘rganishimiz zarur. Yaxshi yashashni, mamlakatimiz taraqqiy etishini istar ekanimiz, shunga munosib harakat qilishimiz shart.

tashkil etilgan. Davlat dasturi bilan ushbu faoliyatni yanada kengaytirish nazarda tutilmoqda. Buni jamiyatda boshqalarga beg‘araz yaxshilik qilishni ko‘proq targ‘ib etishga qaratilgan e‘tibor deb qabul qilishimiz kerak. Mamlakatimizda volontyorlik faoliyati ko‘proq ommalashsa, xuddi sportdagi kabi odamlar orasida muammoni hal qilishda jamoa bo‘lib harakat qilish ko‘nikmasi oshib boradi.

Masalan, Bahodir Iskandarov degan yurtdoshimiz Yaponiya-da istiqomat qiladi. U doim ijtimoiy tarmoqlar orqali yaponiyaliklarning yaxshi va yomon jihatlarini yoritib boradi. Bahodirning aytishicha, kunchiqar yurtda pensiyadagi keksalar volontyorlik qiladi. Ya‘ni har kuni ikki mahal, o‘quvchilar maktabga ketayotgan va ke-layotganda ularni yo‘l-lardan o‘tkazib qo‘yadi. Kechirasiz-u, biz pi-yodalar yo‘lagidan o‘ta-yotgan o‘quvchini mashi-nada unib ketgan haydovchini ayblashdan nariga o‘tmaymiz.

Hech shubhasiz, haydovchi ayb-dor. Ammo o‘sha holat bo‘lmasiligi uchun o‘zimiz nima qildik, degan savol-ga javob izlashimiz kerak. Shundagina tom ma‘noda muammolarga yechim topamiz. Bular juda kichik ish bo‘lib ko‘rinadi, ammo aynan o‘sha kichik holatlar butun jamiyat hayotini hal qilishga qodir.

Yana bir misol, shu kunlarda 2024-yil davomida mamlakatimiz bo‘yicha 103 xizmatiga jami 2713 ta yolg‘on chaqiriq kelib tushgani ma‘lum qilindi. To‘g‘ri, bu ko‘rsatkich o‘tgan yildagidan kamaygan. Demak, jamiyatda yolg‘on chaqiriqning oqibatini tushunib yetayotganlar safi kengaymoqda. Ammo bitta ham yolg‘on chaqiriq bo‘lmasiligi shart. Negaki o‘sha yolg‘on chaqiriq oqibatida tez yordam haqiqatan yordamga muhtoj shaxsga vaqtida yetib bora olmasligi mumkin. Bu esa uning

atrofidagi o‘nlab odamlar qalbida tibbiyot sohasiga ishonchni susaytiradi. Ha, hamma gap mana shunday kichik holatlar va ishonchda!

Prezidentimiz 29-yanvar kuni O‘zbekis-tondagi islom sivilizatsiyasi markazida bajarilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishish chog‘ida **“Bosh maqsadimiz — milliy o‘zligimizni anglash va anglatish”**, deya ta’kidladi. Bu juda katta vazifa. Bugun yangi

atrodagi o‘nlab odamlar qalbida tibbiyot sohasiga ishonchni susaytiradi. Ha, hamma gap mana shunday kichik holatlar va ishonchda!

Prezidentimiz 29-yanvar kuni O‘zbekis-tondagi islom sivilizatsiyasi markazida bajarilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishish chog‘ida **“Bosh maqsadimiz — milliy o‘zligimizni anglash va anglatish”**, deya ta’kidladi. Bu juda katta vazifa. Bugun yangi



O‘zbekistonda barcha jabhalarda xalqimizga o‘zlikni anglatishga qaratilgan siyosat yuritilmoqda. Hatto tashqi siyosatimizdagi do‘stlik, tinchlik va ezigulikni targ‘ib etish orqali dunyo xalqlariga ham umuminsoniy tuyg‘ularni targ‘ib etayotganimizni ko‘rish mumkin. Bizga arzimaddek ko‘ringan, ommaviy sport yoki ko‘ngillilar safini kengaytirishga qaratilgan ishlar zamirida ham ana shunday katta hayotiy haqiqat mujassam.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza, xalqimizda insoning bormi, degan so‘z juda qat’iq haqorat sifatida qabul qilinardi. Chunki insofsiz odamdan har qanday xomonlik chiqishi mumkinligini tushunib, taxmin qilish qiyin emas. Odamlar yomonotliq bo‘lishdan qat’iq qo‘rqardi. Bugun o‘zligimizni anglamogchik ekanimiz, “insof” so‘ziga mana shunday munosabatni qaytarishimiz kerak bo‘ladi.

Yaqinda do‘stlarimdan biri kuyinib bunday dedi: “Har kuni ishga avtobusda qatnayman. Bilasiz, haydovchilar naqd pul olmayapti. Har kim o‘zidan bilib onlayn to‘lov qilishi kerak. Kuzataman, ayrimlar indamasdan tushib ketyapti, insofsizlar”. Bu holatda aslida biz o‘zimizga ziyon qilayotganimizni bilmaymiz. Chunki o‘sha to‘lovlarimiz orqali yo‘lovchilar soni avtomatlashtirilgan tizim orqali hisob-kitob qilinadi. Shu hisobdan kelib chiqib, avtobuslarning kelish oraliqi belgilanadi. Qolaversa, ushbu mablag‘ jamoat transporti rivojlanishiga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Bunday holatlar jamiyatimizning og‘riqli nuqtasidir. Jadid ajdodimiz Abdulhamid Cho‘lpon “Millatni uyg‘otish — uyg‘onganlarning vazifasi”, degan edi. Buning uchun, avvalo, uyg‘onganlar ko‘ngilli bo‘lishni bilishi kerak. Ya‘ni uyg‘oq fikr bilan oq-qorani farqlashning o‘zi yetarli emas. Ayni paytda bilganlarimizni jamiyatda, yon-atrofimizdagilarga targ‘ib etishni o‘rganishimiz zarur. Yaxshi yashashni, mamlakatimiz taraqqiy etishini istar ekanimiz, shunga munosib harakat qilishimiz shart. Ko‘ngillilar safini kengaytirishga qaratilgan vazifalar ortida mana shunday yuksak marra boshlaydigan ishlar yotibdi, desak hech mulog‘a bo‘lmaydi.

Biz volontyor deganda, faqat og‘ir ahvoldagi kishilarga yaxshilik qilishnigina tushunib qolmasligimiz zarur. Avtobusda yo‘l haqini to‘lamagan kimsalardan insof so‘rovini qilib uyaltirish ham, yo‘lni kesib o‘tayotgan o‘quvchining xavfsizligini ta‘minlash ham aslida ko‘ngilli insonlarning ishi. Bularni shakllantirishda baribir ommaviy sportning ham o‘z o‘rni bor, nazarimda.

Masalan, hozir qo‘shnilarim bilan oyda bir yoki ikki marta salomlashaman. Shunda ham mahallada osh bo‘lsa yoinki ko‘cha-ko‘yda duch kelib qolsak. Boshqa vaqlar hamma o‘z tashvishi bilan band. Endi o‘ylang, har hafta dam olish kunlari musobaqalar sabab qo‘shnilar bilan bir jamoa bo‘lib harakat qilsak, nafaqat sog‘lig‘imiz, balki mahallamizning ma‘naviy muhiti ham birdan o‘zgaradi. Odamlarda mulog‘ot qilish imkonini kengaytadi. Bunday subhatlar ijtimoiy mas‘uliyatga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy mas‘uliyatni his etish, daxldorlik hissi esa taraqqiyotning o‘qildizidir.

Maqola avvalida o‘g‘limning vatan-parvarlikni emas, fanatizmni tanlaganini aytgan edim. Endi shu haqda fikrlashsak. Gap

shundaki, o‘g‘lim Abduqodir Husanov to‘p surayotgan jamoa o‘zi muxlislik qiladigan “Real Madrid” futbol klubiga qarshi o‘ynashi haqida gap ochdi. Undan qaysi jamoani qo‘llab-quvvatlashini so‘radim. O‘g‘lim “Real Madrid”ga muxlislik qilishini aytdi. Uning so‘zlarini tinglab, bu endi muxlislik emas, fanatizm ekanini aytdim. Axir vatandoshlik va vatanparvarlik bir-biriga bog‘liq tuyg‘u. Biz har qanday vaziyatda ham, avvalo, yurtdoshimizni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak. Shu orqali vatan sha‘nini yuksaltirishni o‘rganamiz. Bu fikrlarni o‘g‘limga bosiqlik bilan tushuntirishga urindim.

Shu tariqa o‘g‘lim o‘zbek tilining izohli lug‘atini varaqladi. Unda fanatizm biror mafkuraga ko‘r-ko‘rona ergashish ekanini, vatanparvar esa o‘z yurtini sevadigan hamda shunga munosib ish qiladigan shaxsligini bilib oldi. Bu so‘zlarning ma‘nosini bilishi bilan birdaniga vatanparvar bo‘lib qoldi, deyishdan yiroqman. Ammo yana shunday tanlov qarshisida qolganida jiddiy o‘ylab, to‘g‘ri qaror chiqarishiga ishonaman. Chunki tarbiyaning yo‘rig‘i, jamiyatning yangilanib, yuksalib borishi xuddi shunday kichik, ammo hal qilishga qodir hodisalar orqali ro‘y beradi.

Davlat dasturidagi har bitta vazifa, jihatda bir qarashda mana shunday kichik ko‘rinadigan, ammo yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladigan katta va muhim maqsadlar mujassam.





ISSIQ TAFT MEVASI



O'simliklar suv tejovchi texnologiyalar asosida sug'oriladi.

Tadbirkorning ta'kidlashicha, ko'katlar qo'lda teriladi va muzlatkichlarda vaqtincha saqlanadi. Bu vaqtda 100 kishining ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 16-yanvarda investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sohada amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli ko'rib chiqilgandi. Xususan, investitsiyalar samaradorligini oshirish hudud va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan edi.

Tahillarga ko'ra, tumanda 2024-yilda 110 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kredit o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. Amalda bu ko'rsatkich 15 ta korxona tomonidan 104,8 foiz bajarildi.

O'z navbatida, 93 million 116 ming dollarlik sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi.

Joylardagi 8 ta yangi korxona eksport faoliyatiga jalb etilishi tufayli tuman bo'yicha ular soni 80 taga yetdi. Hududiy investitsiya dasturlari doirasida 752,6 milliard so'mlik 37 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 1514 ta yangi ish o'rni ochildi. Ayniqsa, tumandagi eksportchi korxonalar tomonidan yirik issiqxona tarmoqlarida sabzavot mahsulotlari va ko'katlar yetishtirish ancha rivojlandi.

Tumanning "Birlik" mahalla fuqarolar yig'ini hududida faoliyat yuritayotgan "Toshkent logistics" MCHJning 7 gektarli issiqxonasi bor. Loyiha bo'yicha 2021-yilda 945 ming dollar mablag' ajratilishi tufayli issiqxonaning birinchi blogi ishga tushirilgan edi. Keyingi yillarda bu jarayon yana ham tezlashdi.

— Hozir bizga ajratilgan kreditning 30 foizini qopladik, — deydi korxona bosh hisobchisi Rustam Shomurodov. — Ayni paytda 80 ishchi mehnat qilyapti. Avvallari talabga qarab gulchilik bilan ham shug'ullanganmiz. Bugun esa pomidor yetishtiryapmiz. Mahsulotlarimizni ichki bozor bilan birga xorijga ham sotyapmiz. Xususan, o'tgan yili 80 tonna pomidorni savdoga chiqardik. Ichki bozorda mahsulotimizning bir kilosi 14 ming so'mdan 21 ming so'mgacha baholanyapti. Joriy yil mahsulotimiz hajmini yanada oshirish va qo'shimcha ish o'rnlari yaratishni maqsad qilganmiz.

Yuqori Chirchiq tumani hokimi o'rinbosari Ulug'bek Po'latovning ta'kidlashicha, 2025-yilda hududiy investitsiya dasturiga ko'ra, 21 ta korxona tashkil etish belgilangan. Ularning umumiy loyiha qiymati 1 trillion 623 milliard so'm bo'ladi. Shu asosda ochiladigan yangi ish o'rnlari soni 1663 taga yetkaziladi.

Nigora O'ROLOVA,
jurnalist

Tashabbusli budget:

MASALALAR YECHIMIDA FUQAROLAR ISHTIROKI MUHIM

Bu bejiz emas, albatta. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Ochiq budget" axborot portali ishga tushirilgani aholi turmush tarzi uchun muhim bo'lgan infratuzilma tarmoqlari qurish, ta'mirlash bilan bog'liq ishlarni jonlantirdi. Bu jarayonga odamlar befarq emas. Fuqarolar budget ma'lumotlari bilan tanishib borish barobarida mazkur jarayonda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Rishton tumanidagi "Mevazor" mahalla fuqarolar yig'inidagi 3,5 kilometr ichki yo'l "Tashabbusli byudjet" loyihasinging birinchi mavsumida 5000 dan ortiq ovoz to'plab g'olib bo'ldi. Bu yerda umumiy qiymati 1 milliard 200 million so'mlikdan ortiq bunyodkorlik ishlari bajarildi.

— Mahallamizdagi asfaltlangan ko'chalarni obodonlashtirish, o'zboshimcha qurilish, chiqindi tashlash va og'ir texnikalar harakatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnatilgan, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nurali Otaqo'ziyev. — Chunki loyihamizni qo'llab-quvvatlashda barchaning hissasi bor. Bu sa'y-harakat yangi yo'l, suv tarmoqlari, gaz, elektr manbalaridan maqsadli va uzoq vaqt foydalanish imkonini bermoqda. "Tashabbusli budget" loyihasinging joriy yil birinchi mavsumida hududimizdagi 36-maktabgacha ta'lim tashkilotini ta'mirlash, kichikintoylar uchun munosib sharoit yaratish bo'yicha takliflarimizni himoya qilamiz.

Uchko'prik tumanidagi "Mashad" mahalla fuqarolar yig'ini ahlining ichki yo'llarni ta'mirlash, transport va aholi harakati uchun qulay shart-sharoit yaratib berish borasida qilgan murojaati yillar davomida e'tibordan chetda qoldi. Uzoq yillardan buyon ta'mirlanmasdan o'z holiga tashlab qo'yilgan ichki yo'llar yozda chang, yog'ingarchilik kunlari loyga belanib yotardi. Fuqarolar



Normuhammad Nosirov hamda Oybek Abdurahimovning Mashad va Boytumor qishloq yo'llarini ta'mirlash yuzasidan bildirgan taklifi "Ochiq budget" portalida 43 mingdan ortiq ovoz to'plab g'olib bo'ldi. Bu yerda umumiy uzunligi 5 kilometrdan ziyod ichki yo'l ta'mirdan chiqarildi.

Har bir mahallaning o'ziga xos katta-kichik muammolari bor. Ichki yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suv tarmog'i tortish, elektr va gaz ta'minotini yaxshilash, maktab, bog'cha, tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash masalalari hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Endi masalalar yechimiga qaratilgan shaffof tizim kamchiliklarni aniqlash bilan birga, ularning yechimiga e'tiborni oshirdi.

— Aholi kundalik hayot tarzi uchun kerakli masalalar yechimida bevosita fuqarolar ishtirok etayotgani mahalliy byudjet mablag'ini xolis va shaffoflik asosida aniq maqsadlar sari yo'naltirish imkonini bermoqda, — deydi Farg'ona viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Zafarjon Ro'zaliyev. — "Tashabbusli budget" jarayonining o'tgan yilgi birinchi va ikkinchi mavsumida aholi bildirgan taklif va eng ko'p

ovoz to'plagan 477 ta loyihaga umumiy qiymati 614 milliard 957 million 900 ming so'm mablag' yo'naltirilgan. Bular umumiy o'rta va maktabgacha ta'lim, tibbiyot muassasalarini ta'mirlash, qurish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ichimlik va oqova suv tarmoqlarini yangilash, elektr ta'minoti sifatini oshirish, ichki yo'llar, piyodalar yo'lakhasi, yo'l o'tkazgichlar, tungi yoritish chiroqlari o'rnatish, mahalla guzarlari, bolalar o'yingohlari, aholi dam olish maskanlari, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va qonun hujjatlari bilan belgilangan mezonlarga muvofiq boshqa tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq loyihalardir.

Aholi farovonligini oshirish, turmush tarzi uchun muhim ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga ajratilayotgan mablag'lar bevosita soliq to'lovchilarning taklifi va ishtirokida amalga oshirilayotgani nafaqat shahar va tuman markazlari, balki chekka qishloqlarni obodonlashtirish, aholi farovonligini oshirish, og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilish imkonini bermoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tomorqachilik

Joriy yil 30-yanvar kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli ekinlar yetishtirish bo'yicha yangi g'oya va tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, Denov tumanidagi Tasmaso mahallasida 875 ta xonadon tomorqasida sitrus meva ko'chati va limon yetishtirib, har biri yiliga 200 million so'mgacha daromad olayotgani, Sariosiyo va Oltinsoy tumanlaridagi mingdan ziyod xonadon ham "xandaq" va "termos" usulida limon yetishtirish tashabbusini bildirgani bayon etildi.

Surxon vohasida aholi turmushi farovonligini yanada oshirishning muhim omili bo'lgan shaxsiy dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish va uni yangi bosqichga ko'tarishga jiddiy kirishilgan. Xususan, tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar asosida Oltinsoy tumanida ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Hududda bugungi kunda 31 ming 671 ta xonadon bo'lib, ularga qarashi jami ekin maydonlari 2361 gektarni tashkil etadi. Shundan 160 gektari aynan issiqxonalaridir.

— Surxondaryo viloyatida, jumladan, Oltinsoy va Denovda aholining shaxsiy dehqon xo'jaliklaridan samarali foydalanishi uchun ko'p qulayliklar yaratilmoqda. Ayniqsa, bu yo'nalishda qabul qilinayotgan qator qaror va farnonlar sohani yanada rivojlantirishda samara beriyapti, — deydi O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi Oltinsoy tumani bo'limi mutaxassisi Ismoil Boymirov. — 30-yanvar kuni tomorqada va ijaraga berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



RO'ZG'ORGA
BOZORGA
ATROF-MUHITGA
HAM

FOYDALI MASHG'ULOT

shaxsiy dehqon xo'jaliklari uchun ko'plab imtiyozlar berildi. Bu esa ayni yo'nalish yanada rivojlanishiga yangi eshiklar ochdi. Shuningdek, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar sohani yanada taraqqiy ettirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Oltinsoylik Akrom Turdiyev bir necha yilki, xonadonida "xandaq" usulida issiqxona qurib, sitrus mevalar yetishtirib, yuqori daromad olib kelmog'da.

— Dehqonchilik sirlarini o'zlashtirishda ham bilim, ham hayotiy tajriba zarur bo'ladi. Ayniqsa, Oltinsoy singari qishloq xo'jaligida yangidan yangi o'zgarishlar endigina kirib kelayotgan tumanlarda, — deydi Akrom Turdiyev.

Mrishkorning aytishicha, aholi tomorqasidan unumli foydalanishga e'tibor kuchaytirilayotgani yilning to'rt faslida ham arzon va sifatlil meva-sabzavot yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Mingchinor

mahallasida yashovchi Turdiyevlarni keyingi yillarda tumanda ishning ko'zini biladigan usta mirishkorlar sifatida tanishayotgani bor gap. Bunga sabab esa tomorqadan samarali foydalanishning hadisini olgan.

— Dehqonchilikda hikmat ko'p. Bundan uzoq bo'lmagan yillarda Mingchinor, Xo'jasoat mahallalari toshloq, saynoq joy, g'yoh bitmaydi, degan gaplar yurardi. Hozir esa bu mahallalarda yetishtirilayotgan mahsulotlar shu yerning o'zidan peshma-pesh xorijga jo'natilmoqda, — deydi xo'jasoatlik Abdurauf Abdullayev. — Masalan, tumandagi Turdiyevlar oilasining sitrus meva parvarishlash borasida o'z qarashlari, siz bizga ilinadigan tajribasi bor. Ular o'z issiqxonalarida 1200 dan ortiq limon, 200 dan ziyod mandarin, 100 ga yaqin apelsin

daraxtidan yaxshigina hosil olyapti. E'tiborlisi, bu xonadon egalari ko'chatlar hosilga kirguncha oraliq ekinlar ekadi. Shu kunlarda ularning tomorqachilikdagi tajribasini o'rganish bilan mashg'ulman.

Xonadonning yoshi ulug' mirishkori Abdumurod bobo Turdiyev limonchilik sir-asrorlarini farzandlariga o'rgatib borishni kanda qilmaydi. Ularni halol mehnat qilishga, oilasiga sadoqatli bo'lishga o'rgatgan. Farzandlar ham o'zidan peshma-pesh xorijga jo'natilmoqda. E'tiborlisi, ular qurgan issiqxonalarda tomchilatib sug'orish texnologiyasi yo'lga qo'yilgan.

— Bu sug'orishning afzalligi, eng avvalo, suv resurslarini tejashda namoyon bo'ladi. Dehqonchilikdan qilingan daromadimiz esa yangidan yangi loyihalarni amalga oshirishda

yetishtirilmoqda. Bu yerlik odamlarning qadimdan nabotot olamiga mehri boshqacha, shu bois, drayver soha sifatida gulchilik, ko'chatchilik belgilab olingan.

Mahallaga kirib kelishingiz bilan yashillikdan ko'zingiz quvnaydi, tanangiz kislordan to'ginadi. Hududdagi aksariyat xonadonlarda manzarali, mevali gullar va ko'chatlar parvarishlanadi. Mazkur faoliyatdan kelayotgan daromadning esa cho'gi ancha baland. Shu mahallada yashovchi Olim Boyqulovga dehqonchilik otameros. U o'z xonadonida bir nechta issiqxona qurgan. Buning ortidan bugungi kunga kelib, omilkor dehqon sitrus mevalar yetishtirish hadisini olgan.

Qish bo'lishiga qaramay, uning issiqxonalarda sitrus daraxtlarning mevasi

shoda-shoda bo'lib turibdi. Limon, apelsin, mandarin kabi daraxtlar, boshqa manzarali ko'chatlar ko'kka bo'y cho'zgan. Xullas, o'zingizni go'yoki tropik o'rmoniga tushib qolganek his etasiz.

— Tomorqadagi har qarich yerdan unumli foydalanish ro'zg'orga naf keltirishning samarali usuli. Bundan o'zingiz ham, qo'ni-qo'shni, yurt bozori va jamiyat ham foyda ko'radi, — deydi tasmasoylik Olim Boyqulov.

Haq gap. Mamlakatimizda tomorqachilikni rivojlantirish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Mana shunday mehnat bilan kishi o'z turmush farovonligini ta'minlabgina qolmay, bozorlar to'kinligi, ekologiya muassafiligiga ham hissa qo'sha oladi. Olim Boyqulov kabi uzoqni ko'ra oladigan tadbirkor bog'bonlar faoliyati bunga yaqqol misol.

Surxon vohasining iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini erta yetishtirish imkonini beradi. Qish chillasida ham dala maydonlari va aholi tomorqalarida muddatidan avval pishib yetilgan mahsulotlar mahalliy bozorlarga uluksiz yetkazilyapti.

Tasmaso ahl vakillari issiqxonalar qurib, ularda qishki mavsumda ham talab yuqori mahsulotlarni yetishtirib kelmog'da.

— Fuqarolarning yerga munosabati yildan yilga o'zgarib bormog'da. Ayniqsa, davlat tomonidan uluksiz ravishda qo'llab-quvvatlov bo'lgani bunga zamin yarat-yapti, — deydi "Tasmaso" MFYdagi hokim yordamchisi Jo'rabek To'rayev. — "Mahalla yetiligi" vakillari bilan xonadonlarda bo'lib, issiqxona sharoitida dehqonchilik qilishning afzalligini tushuntirib kelyapmiz. Natijalar esa ijobiy. Hozir Tasmaso mahallasi drayver soha rivoji bo'yicha eng ilg'or mahallaga aylanib ulgurdi.

Endi mahallalar bo'ylab hayotiy tajribaga ega dehqonlarni jalb qilgan holda mediaturlar tashkil etish, tomorqasidan eng samarali foydalangan oilalarni rag'batlantirish mexanizmini joriy etish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olindi. Albatta, bu tashabbuslar mavjud imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishga zamin yaratib, aholi daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Yangicha yondashuvlar

DUAL TA'LIM:

O'ZINI OQLAYOTGAN

TAJIRIBA



asosida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiya qilinmoqda. Toshkent davlat texnika universiteti xalqaro tajribalar asosida yangi o'quv rejalarini joriy etgan

ta'lim yo'nalishidan bir-biriga yaqin bo'lgan turdosh ta'lim yo'nalishlari birlashtirilib, 32 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, shuningdek, 69 ta magistratura mutaxassisligidan bir-biriga yaqin bo'lgan turdosh mutaxassisliklar birlashtirilib, 66 ta magistratura mutaxassisligi qoldirildi.

Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan Germaniyaning Drezden texnika universiteti hamda Yaponiyaning Nagoya universiteti dasturlari asosida muhandislik ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasi yo'nalish xususiyatiga moslashtirilgan holda ishlab chiqildi.

Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularga birlashtirilgan korxona va tashkilotlar bazasida o'quv jarayoni dual ta'lim tizimi asosida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil qilingan. Bu amaliyotni ishlab chiqarish jarayonlari bilan yanada yaqinroq bog'lash va mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga katta hissa qo'shadi.



Vazirlik taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, muhandis kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish maqsadida "tarmoq — korxona — oliygo'h" zanjiri

bo'lsa, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "O'zbekneftgaz" AJ bilan hamkorlikda "Kiberneftgaz" muhandislik maktabini ochdi.

nazariy qismini universitetda, amaliy qismini esa "Buxara Varnet" xorijiy korxonasida o'tkazmoqda. Mazkur korxona Buxoro tumanida joylashgan bo'lib, unga 30 yil davomida foydalanish uchun 110 gektardan ortiq yer ajratilgan.

Bugungi kunda korxona tomonidan umumiy qiymati 100 million dollarga yaqin bo'lgan "Gidroponika usulida Turkiya texnologiyasi asosida zamonaviy oynali issiqxona barpo etish" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Bu yerda dual ta'limga o'qiyotgan talabalarga tashkilotning ta'lim dasturlariga muvofiq, amaliy ko'nikma va malakalarni egallashi uchun ish o'rni yaratilgan. Bunda korxona, universitet hamda talaba o'rnatida dual ta'limni amalga oshirish uchun o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha tuzilgan shartnoma asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini tashkillashtirish uchun universitet tomonidan talabalarga ustozlar va malakali mutaxassislar birlashtirilgan.

Universitetimizda tashkil etilgan dual ta'limning asosiy maqsadi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ular tomonidan tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, tashkilot va korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatining ijobiy tajribasini o'rganishdir, — deydi Buxoro davlat universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori Rustam Jumayev. — Bu, shubhasiz, talabalarning kelajakdagi mutaxassisligi bo'yicha qiziqishlarini rivojlantirishga, yaratuvchanlik qobiliyatini oshirishga katta hissa qo'shadi. Ko'zlanayotgan

maqsadlarning hozirdanoq natija bera boshlayotgani bu tashabbusning samaradorligini isbotlamog'da. Talabalar nafaqat nazariyani o'rganadi, balki olgan bilimlarini amalda qo'llaydi, bu esa mehnat bozori talablariga tezroq moslashish imkonini beradi. Talabalar o'qish davomida bo'lajak ish beruvchilar bilan uchrashadi, bu esa o'qishni tugatgandan keyin ish topish ehtimolini oshiradi. Dual ta'lim ta'lim sohasidagi istiqbolli yo'nalish bo'lib, zamonaviy mehnat bozorida talabga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. Ushbu sohani yanada rivojlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilashga kengroq yo'l ochadi.

Ro'ziyoy Ashurbayev bugun Buxoro davlat universitetining o'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishida kunduzgi ta'lim shaklida o'qimoqda. Uning aytishicha, dual ta'limning afzalliklari nihoyatda ko'p.

— Istaymizmi, yo'qmi, bugungi davrda tirikchilik ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Axir bozor iqtisodiyoti shu, — deydi Ro'ziyoy Ashurbayev. — Oliygo'hda o'qishni azaldan orzu qilardim, lekin bunga sharoitim bo'lmadi. Menga o'xshaganlar uchun dual ta'lim ayni muddao bo'ldi. Bir tomondan, o'qishning davom etaveradi, ikkinchi tomondan, mutaxassisligingizni mukammal egallab boraverasiz.

Dual ta'lim shaklida mutaxassis bo'lib yetishayotganlar bugun talaygina. Quvonarlisi, ta'limning ayni shakli ommalashib bormoqda. Sababi buning asosida zamonning tezkorlik talabi mujassam.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Mulohaza

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori mamlakatimizda o'qitish sohasidagi islohotlar ijrosini maktabda ta'minlaydigan boshqaruvchi shaxs. Unda menejerlik ko'nikmasi, zamonaviy bilim, yuksak axloqiy fazilatlar va boshqaruv tajribasi bo'lishi shart.



Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Maktab menejeri muntazam yetakchi va ta'lim jarayonining tashkilotchisi sifatida boshqaruv sohasida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi juda muhim. Uning asosiy vazifalaridan biri, albatta, xodimlar o'rnatida ijobiy muhitni shakllantirish, sifatli muloqot qobiliyati va usullardan foydalangan holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish, xodimlarni rag'batlantirish, kichik yutug'ni uchun ham e'tirof etish, ularga shaxsiy namuna bo'lishdir.

Mazkur lavozimga nomzodlar menejerlik sertifikatini olishi uchun Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida maxsus dasturlar asosida o'qitiladi. O'qish yakuni bo'yicha maktab direktori lavozimiga nomzodlarning boshqaruv sohasiga oid bilim va ko'nikmalari baholalanadi hamda natijasi bo'yicha menejerlik sertifikati beriladi. Institutda menejerlik o'quv kurslarini tashkil etish borasida qator rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganildi. Jumladan, Singapur, BAA, Avstraliya kabi mamlakatlar tajribasiga ko'ra maktab direktorlarini tayyorlashda kasb standartlari asos qilib olinadigan bo'ldi.

MAKTAB DIREKTORI

QACHON BU LAVOZIMGA LOYIQ SANALADI?

— Menejerlik kurslarini tashkil etishdan oldin yurtimizning barcha hududlarida ta'lim sifati, direktorlarimiz salohiyatini o'rgandik, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining akademik faoliyat bo'yicha birinchi prorektori Xushnomo Burhonxo'jayeva. — "Bu kurs direktorga kerakmi? Agar kerak bo'lsa nima uchun?" degan savolga javob izladik. Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartlari qator bandlardan iborat. Bular — ta'lim menejmenti, ta'lim muassasasini rivojlantirish va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini o'zi va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, inson resurslarini boshqarish, ish yuritish va hisobot, jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro munosabat/hamkorlik modullari. Bugungi direktor shu kabi talablarga qay darajada javob bera olyapti? Javob bermayotgan bo'lsa, uni ishdan bo'shatish emas, balki talab darajasida tayyorlash bosh maqsadimizga aylandi. O'rganishlar natijasida bu talablar bo'yicha direktorlar tushunchaga ega ekani, ammo ishini aniq tartibda tashkil qila olmayotgani oydinlashdi. Ya'ni aniq mexanizm yo'qligiga guvoh bo'ldik. O'rganish va tahliiliy ma'lumotlarga asosan menejerlik o'quv kurslari uchun o'quv reja va dasturlar ishlab chiqildi. Unda bevosita umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga tayanildi.

2024-yil fevralida ilk bor menejerlik o'quv kurslari ish boshladi. Dastlab ushbu kurslarga direktor lavozimiga nomzodlar o'qitildi. Nomzodlarni o'qitishga ustuvorlik berishdan asosiy maqsad bo'sh turgan maktab direktori lavozimiga munosib kadrlar tayyorlab berish edi. Bu, o'z navbatida, ushbu maktablar faoliyatiga alohida e'tibordan dalolat.

— Institutda rahbar kadrlar tayyorlash va zaxirasini shakllantirish maqsadida menejerlik o'quv kurslariga bugun manager.uzedu.uz elektron platformasi orqali nomzodlardan arizalar qabul qilinmoqda hamda 2024-yilda 2698 nomzod va direktor o'qitildi, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bosh mutaxassisi Eldor Xudoyberdiyev. — Shundan 1680 nafari nomzodlar, 1018 nafari esa amaldagi

direktorlar. Sinov natijalariga ko'ra, 1314 nomzod, 767 amaldagi direktor o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan va menejerlik sertifikatini olgan. O'quv jarayoni bir oy davom etdi. Darslarni oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot, shuningdek, xususiy va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, ta'lim tashkilotlarining tajribali rahbar xodimlari o'tdi.

2024-YIL FEVRALIDA ILK BOR MENEJERLIK O'QUV KURS LARI ISH BOSH LADI. DAST LAB USHBU KURS LARGA DIREKTOR LAVOZIMIGA NOMZODLAR O'QITILDI. NOMZODLARNI O'QITISHGA USTUVORLIK BERISHDAN ASOSIY MAQSAD BO'SH TURGAN MAKTAB DIREKTORI LAVOZIMIGA MUNOSIB KADRLAR TAYYORLAB BERISH EDI. BU, O'Z NAVBATIDA, USHBU MAKTABLAR FAOLIYATIGA ALOHIDA E'TIBORDAN DALOLAT.



Dastlab trenerlar ro'xati shakllantirildi. Britaniya kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti trenerlari bilan hamkorlikda uch kunlik trening tashkil qilindi. Bu yetarli emas edi. Chunki menejerlik o'quv kurslarida dars o'tadigan professor-o'qituvchilarning trenerlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqaligina sifati ta'minlash mumkin. Shu sababli o'quv jarayoni davomida xalqaro trenerlar bilan hamkorlikda ishlandi. Direktor ishini tizimga solib berish juda muhim. Trenerlar oldiga bu borada qat'iy talab qo'yildi. 2024-yilning fevralida saralangan trenerlar bilan ish boshlandi. Nomzodlarni direktorlikka tayyorlash barobarida amaldagi maktab rahbarlarining malakasini oshirish ham nazarda tutildi.

— Tabiiyki, tizimga joriy qilingan har qanday dastur qabul qiluvchining fikri asosida takomillashtiriladi. Direktorlar bilan gaplashganimizda bilimni oshirish ko'nikmasiga ko'proq e'tibor berganimiz ta'kidlandi, — deydi Xushnomo Burhonxo'jayeva. — Zero, bugun ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchi va ota-ona o'rnatidagi ziddiyatlar ko'p tilga olinmoqda. Nomzodlar esa ko'proq o'qituvchi, ota-onalar bilan ishlash, muomala sirlari, muammoli vaziyatlarda qanday yo'l tutish kerakligi haqida so'radi. Avstraliya, BAA, Buyuk Britaniya, Singapur tajribasini o'rgana boshladik. 2024-yil yoz oylarida singapurlik hamkorlar kelib, direktorlarga alohida kurs o'tib berdi. Vaziyat bolalarning bilim olishiga e'tibor qaratish bilan



birga qiziqishini oshirish, hissiy holatini o'rganish va qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatdi. Direktor shunchaki boshqaruvchi emas, balki ta'lim mazmuni ichidagi odam bo'lishi kerakligi, har bir o'qituvchining qo'lidan tutib, "Qayerda qiyalayapsan? Men yordam beraman", deydingan, rahbar emas, balki ko'makdosh, yelkadosh bo'lishi kerakligini tushundik. Bu bizni ruhlantirdi, tajribani menejerlik o'quv dasturiga "Ta'limga yetakchilik va o'zgarishlarni boshqarish" nomli alohida modul qilib kiritdik. Bundan tashqari, o'quv dasturiga "Direktor murabbiy sifatida" degan mavzuni ham qo'shдик. Bu mavzuda universitetni endi bitirib, maktabga ishga kelgan yosh o'qituvchini katta o'qituvchiga aylantirishda direktorning vazifasi aniq keltirilgan. 2025-yilgi o'quv kurslarida bu ham o'z ifodasini topgan. Jarayonda maktab direktorlarining shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, xodimlar mahorati va kasbiy malakasi yanada o'sishiga imkoniyat yaratishi, kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklariga xolisona yondashuviga e'tibor qaratildi.

O'qish davomida ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalar oshirilmoqda. Amaliy ko'nikmani oshirish uchun tinglovchilarga Toshkent shahridagi eng tajribali direktorlar birlashtirildi. Ularning hamkorligini ta'minlash orqali ilg'or tajribasi o'rgatildi. Masalan, maktab direktorlari Toshkent shahridagi Olmazor, Shayxontohur, Sergeli tumanlaridagi umumta'lim muassasalarida, Ibn Sino va Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda amaliyot o'tadi. Nomzodlar esa Yangihayot tumanidagi 329-, Olmazor tumanidagi 133- va 191-, Chilonzor tumanidagi 200-, Yakkasaryo tumanidagi 26- va 91-, Uchtepa tumanidagi 81-maktablarda, shuningdek, poytaxtimizdagi boshqa qator namunalı maktablarda bilim va tajribasini sinovdan o'tkazdi.

— Menejerlik kursida o'qishdan oldin maktab rahbari sifatida o'zinni har qanday masalaga faqat ilmiy yondashadigan, bekor yurgan o'quvchilarga tanbeh beradigan, vazifani bajarmaydigan ustozlarga qattiqqo'llik qiladigan rahbar sifatida bilardim, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi 27-maktab direktori o'rinbosari Shakhzodbek Rustamov. — Lekin menejerlik kursida o'qigach, yangilikka intiluvchan, har qanday yangilikni oson qabul qila oladigan, o'zgarishni o'zidan boshlaydigan va yaxshi ishlayotgan muallimlarni rag'batlantirib, ruhlantiradigan rahbar sifatida ko'rdim.

Kurs tinglovchilaridan Sevara Qarshiboyevaning fikricha, menejerlik o'quv kursi bilim, salohiyatni yana bir bor sinovdan o'tkazish imkonini berdi.

Ikki hafta amaliy tadqiqot o'tadim. Bunda o'zimga maqsad, vazifa, xulosa, chora-tadbirlar belgilab oldim. O'qish davomida menga asosan ta'lim menejmenti moduli ma'qul keldi. Jarayonda biz menejer kim, qanday bo'lishi, maktabni qaysi tamoyillar asosida boshqarishi kerak, oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yib olishi lozimligini o'rgandik. Bu kelgusida samara berishiga ishonchim komil, — deydi u.

Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va menejerlik sertifikatiga ega nomzodgina direktorlikka da'vogarlik qilishi mumkin. Bu nima beradi? Birinchi navbatda, maktabdagi ta'lim sifatiini oshirish, boshqaruv muhitini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim olish sharoitini yaratib berishga zamin hozirlaydi. Qolaversa, maktab boshqaruviga yuksak bilim, mahorat, ilg'or tajriba kabi kerakli xususiyatlarni jamlagan va ta'lim siyosatini yaxshi tushungan hamda uni joriy eta olishiga ishonch bildirilgan shaxs jalb etilishi lozim.



6
Ifixor

Yaqindagina Malayziyaning turizm shahri Kuchingda o'tkazilgan "Borneo Craft Global" (BCG) "Expo & Conference" festivalida shahrisabzlik Rustam Muzaffarov O'zbekiston tomonidan qatnashib qaytdi. Sulolaning yettinchi avlod davomchisi bo'lgan yosh kulol ijodiy mahsulotlari namoyishidan tashqari "Maktabgacha va maktab ta'limida an'anaviy kulolchilikning o'ni" mavzusida ma'ruza qildi.

Hunarmand kulolchilikni maktabga dars sifatida kiritish loyihasini ko'plab mamlakatlarda targ'ib qilyapti. U Toshkentdagi "Invento international school" xalqaro maktabida kulolchilik sirlaridan saboq beradi. Loyiha doirasida qariyb besh yildan buyon o'tayotgan mashg'ulotlari ota-onalarga ma'qul bo'lyapti. E'tiborlisi, kulolchilikning bola qo'l motorikasiga foydali ekanini xorijliklarni ham qiziqitira boshladi.

Loy bolaning diqqatini jamlaydi

— Ayniqsa, autizmga, bosh miyasi bilan bog'liq kasalliklarga chalingan bolalar 7-8 yoshda ham narsalarni ushlay olmaydi. Ba'zilariga hatto ovqatini yedirib qo'yish kerak. Loy bilan ishlashda esa ular o'z kuchini ishlata oladi. Loyni qattiq mushdlash kerak. Loy aylanishi jarayonida esa bolaning fikri jamlanadi, tinchlanadi. Eng to'polonchi, o'ta sho'x bolalar ham ushbu jarayonda diqqat bilan ishini kuzatadi. Shu ma'noda, bolalarning loy bilan ishlashi foydali ekanini keng targ'ib qilyapmiz, — deydi Rustam Muzaffarov. — Malayziyada o'tgan mahorat darsimda o'zbekistonlik bolalarning loy bilan ishlash jarayonini amaliyot videodarslari orqali tushuntirdim. Ma'ruzamning amaliy qismida ustaxonaga taklif qilindim. Faqat professorlar ishtirokidagi bu jarayonda loy bilan ishlashni amalda ko'rsatib berdim. Ba'zilar qiziqib ishlab ko'rdi. Vaqt kamligi uchun ulgurmay qolganlar esa meni Kuala-Lumpurdan kelgan deb o'ylab, "Oldingizga borib ish o'rgansak maylimi?" deb so'radi. O'zbekistondan kelganimni, masofadan bo'lsa-da, yordam berishga tayyorligimni aytdim. Bog'lanish istagidagilar orasida hatto O'zbekistonga kelmoqchi bo'lganlar ham ancha.

"Malayziyada xalqaro toifadagi hakam bo'ldim"

— Festivalning uchinchi kuni tanlov boshlandi. Ne ajabki, meni ham hakamlikka taklif qilishdi. Uch yuzga yaqin qatnashchi orasidan saralab olingan 10 ishtirokchining uch nafariga faxriy o'rin berishimiz kerak. Fransiyalik dizayner do'stimiz, Filippindan professor Vang xonim bilan birga ishga kirishdik. Eng qizig'i, uchala hakam uch ishtirokchini 1-o'runga munosib deb topdik. Biroq bir kishi qolishi kerak. Tanlash juda qiyin kechdi. Chunki ishtirokchilarning barchasi professional ishladi. Menga eng



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Ayni kunlarda Hisor tog'lari oppoq qorga burkangan. Olisdan qaraganda ajib ko'rinishga ega purviqor cho'qqilar yaqinlashganingiz sari tobora haybat kasb etib boraveradi. Imkoni bo'lsa, shu tepaliklarga chiqib, tabiat mo'jizalarini tomosha qilgingiz keladi. Necha ming yillik tarixga guvoh tog'u toshlar qatidagi yashirin sirlarni anglashga intiladi odam. Buning uchun shijoat bo'lsa bas. Aslida, chet elma-chet el yurish ham shart emas. Yurtimizdagi betakror manzillar, tabiat in'om etgan mo'jizalaru buyuk allomalar qo'nim topgan makonlarni bir borib ko'rgan afzal. Shunda nimani ham tomosha qilardim, deguvchilar hali ko'p narsalarni ko'rmaganini angelaydi. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan manzil ham ko'pchilik uchun qiziq.

Boradigan joyimiz anchagina olis edi. Qish fasli bo'lishiga qaramay, hech ikkilanishsiz yo'lga chiqdik. Buning o'ziga yarasha sababi bor. Ko'pdan buyon borishga hozirlanib yurgan bo'lsak-da, yaqinda o'sha hududda Ali Qushchi ham yashagani haqida eshitib, safarimizni ertaroq boshlashga qaror qildik.

Yo'lga tushdik. Hali boradigan joygacha ancha masofa bor. Lekin shu tomon ko'z tikib qarasa, baland oppoq qorli cho'qqilar ancha yaqin ko'rinadi. Asta-sekin mashinada yuqorilab borarkanmiz, go'yo tog'lar ortga surilib borayotgandek... Boz ustiga yo'lining abgor holati xavotirimizni oshirmoqda. Aslida, hech bir joyda bunday muammoga duch kelmayotgandik. Ancha masofa bosib o'tilgach, ikki tomoni baland tepaliklardan iborat, uylari pastu balandlikda qad rostlagan qishloqga kirib bordik. Hamrohim hayratini yashirolmadi. Huv yuqorida mahorat ila qurilgan imoratga termilib qoldi. Yana bir oz yurilgach, archalarga ko'zimiz tushdi. Ular xuddi toqqa kelayotgan mehmonlarni kutib olayotgan mezbom kabi turardi. Sal vaqtdan so'ng yo'l chetida qor ko'rina boshladi. Shundan manzilga yaqinlashib qolganimizni angladik. Sababi osmono'par cho'qqilar tobora yaqin ko'rinib qolgandi.

Bashir qishlog'iga kirib keldik. Yo'lining chap tarafda "Hazrati Bashir ziyoratgohi" deb yozib qo'yilgan. Dastlabki ishini ziyoratdan boshladik. Baland tepalikda kichik maqbara qad rostlab turibdi. Zinapoyalar orqali yuqorilaymiz. Atrofda ancha yillik pista daraxtlari. Maqbara oldida esa ming yillik archa. Bizga yo'l boshlovchilik qilgan kishining so'zlariga quloq tutamiz.



Parda cho'pon suruvni suvlatgani quduq tarafga haydadi. Rahmatli Toshmurod bobo qazib ketgan quduq qirq yildan buyon beminnat suv berib kelyapti, bo'lmasa, qo'ychivonlarning holi nima kechardi?..

Suvning qadrini boshqalar bilmasa ham Parda cho'pon yaxshi biladi. Suvni deb shaharda yashaydigan o'g'li Yaxshiboyni qattiq koyigani, kenja kelinining suv oqayotgan ariqqa mag'zava to'kkanini ko'rib indamagan kampirini urishgani ham rost. O'g'li o'qimishli yigit, aybini tan olib uzr so'radi, ammo kampiri tushmagur naq bir oy qizinkigiga arazlab ketib qolib, o'sal qildi-da.

Ali Qushchi YASHAGAN MANZIL SAYYOHLARDA QIZIQISH KUCHLI, AMMO...



— Bu yerda Hazrati Bashir, ya'ni asl ismi Sulton Sayid Ahmad dafn etilgan, — deydi ziyoratgoh xodimi Oybek Rajabov. — Shuningdek, ikki farzandi hamda bir xizmatchisi ham u kishining yonida abadiy qo'nim topgan. Bashir ota o'z davrida tasavvufda alohida martabaga erishgan. So'fiylik tariqati asoschisi. Ilmning ko'plab yo'nalishida yetuk insonlardan bo'lgan. Uning tavallud sanasi taxminan hijriy 868-yilga to'g'ri keladi. Aytishlaricha, xonaqoh yonidagi archa hazratning hassasi bo'lgan. Keksaygan chog'ida tepalikda turib, hassasini shu tarafga uloqtirgan. "Tayog'im qayga borib tushsa, shu jori mening abadiy makonim bo'ladi", deya vasiyat qilgan. Vafotidan so'ng shu yerga qo'yilgan. Lekin hassasi yerga qadalgancha qolgan. Bir oz vaqt o'tib, ko'karib chiqqan. Hozir ham yashillikka burkanib turibdi. Bu endi bir afsona. Atrofdagi pistalarni ham o'z

qo'li bilan ekkani aytiladi. Shu bois, bu daraxtlarning yoshi ancha yilga borib taqaladi.

Pistazordagi butalarga ko'z yugurtirgan kishi bular haqiqatan necha asrlarga guvoh bo'lganini anglashi mumkin. Daraxtlar soni 200 dan ziyod. Sobiq ittifoqdan oldin ushbu bog'dan yaxshigina hosil olingan. Ammo bir vaqtlar bog' e'tiborsiz qoldirilgan. Daraxtlar hosil bermay qo'yg'an. Vaqt o'tib, yurtga istiqloq nafasi kirib kelgach, bog' qayta gulga kirib, mo'l hosil bera boshlagan.

Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur katta ehtirom ko'rsatgan ilm sohiblaridan biri Sayyid Ne'matulloh Samarqanddan tog' orqali oshib, Kesh tomon yo'lga tushadi. Boshpana topish istagida Kosatarosh qishlog'iga kirib borarkan, uni Xo'ja Hasan degan kishi boshliq bir guruh odam kutib oladi. Shundan so'ng olim Xo'ja Hasaning uyida mehmon bo'ladi. Oradan ikki-uch kun o'tgach, Sayyid Ne'matulloh qarasa, yoshi bir joyga borib qolgan mezbom barcha yumushlarni o'zi bajarib yurgan bo'ladi. Bundan ajablanib so'raganida, uy egasi farzandsiz ekanini aytib, ko'ziga yosh oladi. Shunda mehmon Yaratganga iltijo qilib, Xo'ja Hasanga farzand berishini so'raydi. Shu voqeadan bir yil o'tib, xonadonda o'g'il dunyoga keladi, unga Bashir deb ism qo'yiladi. Voyaga yetgach, o'g'on ilm o'rganishga ko'proq vaqt sarflab, asosan, tog'da yashashga, daradagi daraxtlar mevasi, dehqonchilik ekinlari bilan kun kechirishga odatlanadi. 35-40 yoshlarga yetganida ilmining shuhrati tevarak-atrofga yoyilib,

o'sha davrda Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan Mirzo Ulug'bekning qulog'iga ham chalinadi. Ba'zi manbalarga ko'ra, podsho Samarqand xirojining bir qismini Hazrati Bashirga yuborib turgani aytiladi. Alloma esa xirojni masjid qurilishiga ishlatadi.

Ulug'bek vafotidan so'ng shogirdi Ali Qushchi Hazrati Bashirning oldiga keladi. U davrda tog' bag'ridagi Qizilqoya tepaligidagi g'orda yashayotgan Hazrati Bashir mehmonni yaxshi kutib oladi. Muayyan muddat shu yerda yashab qolishi uchun sharoit qilib beradi. Hozir ham saqlanib qolgan g'orda Ali Qushchi besh-olti yil yashagani aytiladi. Keyinchalik Samarqanddagi notinchliklar sabab olim bu yerni ham tark etishga majbur bo'lgan. Qishloq odamlarining aytishicha, g'orda yuvinish, tahorat qilish uchun maxsus xonalar mavjud. Shu bilan birga, suv idishlari, kitob va shamchiroqlar qo'yish uchun g'or devorida alohida tokchalar o'yib ishlangan. Ikkitta bo'lman iborat g'ordagi holat aslicha turibdi. Hozir bu hududda Ali Qushchi nomi bilan ataladigan qishloq bor.

— Kunlar isiy boshlagach, ziyoratgohga bir kunda yuzlab mehmon keladi, — deydi "Bashir" MFY raisi To'ychi Murodov. — Hatto chet ellik sayyohlar ham kelib turadi. Qishlog'imiz o'ziga xos tarixiy maskan. Har bir toshi ortida sir bor. Tog'li hudud bo'lgani bilan hali o'rganilmagan joylari juda ko'p. Shu bois, bu toshlar orasida qancha ochilmagan sir yotganini bilmaymiz. Izlanishlar olib borilsa, ehtimol, Ulug'bek xazinasi o'ld, Ali Qushchiga tegishli ayrim manbalar, kitoblar topilishi ham mumkin.

Ko'plab odam kelishiga qaramay, ziyoratgohda mehmonlar uchun kerakli sharoit yaratilmagan. Mahalla raisining aytishicha, joriy yildan xizmatlar sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratila boshlagan. Jumladan, tadbirkor Bahodir Kenjayev tashabbusi bilan qishloqning o'zida 40 kishilik mehmon uylari barpo etilibdi. Bundan tashqari, madaniy hordiq chiqarish uchun daryo yoqasida dam olish maskani qurilmoqda. Keyingi loyihada katta sig'imga ega mehmonxona qurish rejalashtirilgan.

Iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo'yshadigan turizmni rivojlantirish uchun yurtimizda salmoqli ishlar bajarilmoqda. Shunday ekan, Kitob tumaniga qarashli bu manzilda mutaxassislar tomonidan o'rganishlar olib borilsa, moziy qatidan bizgacha yetib kelgan ayrim manbalar topilishiga erishish mumkin. Bu esa sohaning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

U qo'rqib ketdi, jon holatda tayog'ini olib, izlarni axtardi. Topdi, suruv kunbotarga ketibdi. Qo'yilarga nimadir hadik bergan chog'i...

Parda cho'pon piyoda qirdan qirga, adirdan adirga o'tib, naq tushgacha qora terga botib yugurdi. Axir uch yuz qo'y qo'qolib ketsa, uyi, xonumoni kuyadi-ku!

Cho'pon yana oyquga turdi. U tepalikdan oshib o'tdi, narigisidan ham. Qo'ylar yo'q, hech zog' yo'q.

Tepadan kun qizdirdi, qani endi bir qultum suv bo'lsa, jonu jahoni mayli, Parda cho'pon o'sha tobda bir qultum suv uchun uch yuz qo'yni ham berardi.

U sayhonlikda yiqildi, hushidan ketdi, uzoq yotdi. Bir payt kimdir yuziga suv sepdi, og'ziga suv tomizdi. Cho'pon o'ziga keldi. Yutoqib g'o'lchaga yopishdi, ichdi-ichdi. Tashnalik azobini qondirdi, so'ng o'kirib chig'lab yubordi.

Tepasida turgan Rayhon cho'pon unga dalda berdi:

— Turing, oshna, erkak ham yig'laydimi?! Ana, qo'ylaringiz tus-tugal, tongda hayiqib ketayotgan ekan. Itlar ham qo'ylar bilan birga.

Parda cho'pon bir qo'zini so'yib, kechqurun Rayhon oshnasini qo'shxonaga mehmonga chaqirdi. Oshnasi ham quruq kelmadi, xurjudan ikki g'o'lcha quduq suvi chiqarib, dasturxon chetiga qo'ydi.

Cho'ponlar suv haqida gurgung boshladi.

O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** — 246.
36060 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:05 Topshirildi — 23:55